

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM TASHKILOTLARINING

SOHAVIY IXTISOSLASHUVI VA TA'LIM YO'NALISHLARI TARKIBINI TAHLIL QILISH HAMDA TOIFALASH

TO'G'RISIDA AXBOROT-TAHLILIIY MATERIAL

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARINING

SOHAVIY IXTISOSLASHUVI VA TA'LIM YO'NALISHLARI TARKIBINI TAHLIL QILISH HAMDA TOIFALASH

TO'G'RISIDA AXBOROT-TAHLILIIY MATERIAL

MUNDARIJA


I. KIRISH.....	4
II. METODOLOGIYA.....	5
III. TALABALAR KONTINGENTINING TA'LIM SOHALARI KESIMIDA TAQSIMOTI.....	7
IV. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING TA'LIM SOHALARI KESIMIDA (FANLAR TOIFASI) TAQSIMOTI.....	8
V. HUDUDLAR KESIMIDA TAHLIL.....	9
VI. TOIFALAR KESIMIDA TAHLIL.....	10
VII. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI KESIMIDA TAHLIL	12
7.1 Amaliy fanlar toifasi.....	12
7.2 Tibbiyot fanlari toifasi.....	13
7.3 Ijtimoiy-gumanitar fanlar toifasi.....	14
7.4 Ijod (sport) fanlari toifasi.....	15
VIII. UNIVERSITETLARNING STRATEGIK MISSIYASI VA AMALDAGI TA'LIM TUZILMASI O'RTASIDAGI NOMUTANOSIBLIK.....	16
IX. XULOSA.....	17
1-ilova.....	19
2-ilova.....	25
3-ilova.....	26

I. KIRISH

Mazkur axborot-tahliliy material O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tashkilotlarini milliy reyting asosida baholash jarayonida universitetlarning sohaviy ixtisoslashuv darajasini aniqlash hamda ularni fanlar toifalari bo'yicha guruhlash maqsadida tayyorlandi.

So'nggi yillarda respublikada oliy ta'lim tizimi jadal rivojlanib, universitetlar soni va ta'lim yo'nalishlari sezilarli darajada kengaydi. Xususan, davlat oliy ta'lim tashkilotlari bilan bir qatorda nodavlat universitetlar hamda xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari filiallari faoliyatining kengayishi natijasida oliy ta'lim tashkilotlarining institutsional profili va ta'lim dasturlari tarkibi sezilarli darajada kengaydi.

Natijada ayrim universitetlarda ta'lim yo'nalishlari tarkibida ko'p tarmoqlilik tendensiyasi shakllanib, universitetning e'lon qilingan strategik missiyasi bilan amaldagi ta'lim dasturlari tarkibi o'rtasida muayyan nomutanosiblik holatlari kuzatilmoqda. Bu esa universitetlarning sohaviy ixtisoslashuv darajasini aniqlash va ularni milliy reyting tizimida adolatli va qiyosiy baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda.



Xalqaro amaliyotda universitetlar faoliyatini baholash va reytingini yuritish jarayonida ta'lim tashkilotlarini ularni institutsional profili, fan sohalari va ixtisoslashuv yo'nalishlari bo'yicha guruhlash amaliyoti qo'llaniladi.

Xitoyning milliy reyting amaliyotida universitetlar tabiiy fanlar, muhandislik, tibbiyot va ijtimoiy fanlar kabi yirik sohalar, shuningdek alohida mutaxassislik yo'nalishlari kesimida baholanib, reyting natijalari shakllantiriladi.

Mazkur yondashuv turli sohalarda faoliyat yurituvchi universitetlarning ilmiy va ta'lim faoliyatini bir xil mezonlar asosida qiyosiy baholash imkonini yaratadi. Shu orqali universitetlarning sohaviy ixtisoslashuvi, ilmiy natijalari va akademik samaradorligi har bir fan sohasi kesimida alohida baholanadi. Bu esa turli sohalarga ixtisoslashgan universitetlarning reyting natijalarini adolatli shakllantirish hamda metodologik muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan mazkur tahlil doirasida respublikadagi oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar kontingentining ta'lim sohalari kesimida taqsimoti o'rganildi

hamda universitetlarning profil ixtisoslashuvi darajasi baholandi. Tahlil natijalari asosida oliy ta'lim tashkilotlarini fanlar toifalari bo'yicha guruhlash (toifalash) hamda milliy reytingni shakllantirishda mazkur toifalarni hisobga olish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

II. METODOLOGIYA

Mazkur tahlilni amalga oshirishda normativ-huquqiy asos sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktori buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish to'g'risidagi nizom" qoidalari inobatga olindi. Ushbu nizom 2026 yil 28 fevralda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 3783-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, unda oliy ta'lim tashkilotlarini ta'lim sohalari (ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari) bo'yicha tegishli

toifalarga ajratish tartibi belgilangan.

Tahlil jarayonida asosiy ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining HEMIS (Higher Education Management Information System) axborot tizimi ma'lumotlaridan foydalanildi. Tahlilda 2026 yil 28 fevral holatiga shakllangan talabalar kontingenti to'g'risidagi statistik ma'lumotlar asos qilib olindi.

Metodologik yondashuv doirasida oliy ta'lim tashkilotlaridagi talabalar kontingenti ta'lim yo'nalishlari bo'yicha guruhlanib, ular quyidagi fanlar toifalari kesimida tahlil qilindi:




**AMALIY
FANLAR**



**IJTIMOIY-GUMANITAR
FANLAR**



**TIBBIYOT
FANLARI**



**IJOD (SPORT)
FANLARI**

Tahlil jarayonida har bir oliy ta'lim tashkiloti bo'yicha talabalar kontingentining ushbu fanlar toifalaridagi ulushi hisoblandi hamda universitetning asosiy ta'lim profili aniqlandi. Universitetlarni toifalashda talabalar kontingenti tarkibida qaysi fan toifasi ustuvor ulushga ega ekani asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

Shu asosda oliy ta'lim tashkilotlari, ulardagi talabalar kontingentining tarkibiy ulushiga qarab tegishli soha toifalariga ajratildi. Mazkur yondashuv universitetlarning ixtisoslashuv darajasini baholash hamda ularni sohaviy profiliga ko'ra guruhlash imkonini beradi.

Quyidagi asosiy ko'rsatkichlar hisobga olindi:

➤ Talabalar kontingentining fan sohalari kesimidagi ulushi	01
➤ Universitetlarning sohaviy ixtisoslashuv darajasi	02
➤ Ta'lim yo'nalishlari tarkibidagi ko'p tarmoqlilik darajasi	03
➤ Universitetlarning e'lon qilingan profili va amaldagi ta'lim tuzilmasi o'rtasidagi muvofiqlik	04

Ushbu metodologik yondashuv oliy ta'lim tashkilotlarini sohaviy profili bo'yicha tizimli tarzda guruhlash, ularning ixtisoslashuv darajasini baholash hamda milliy reytingni shakllantirishda toifalar kesimida qiyosiy baholash mexanizmini joriy etish uchun asos yaratishga xizmat qiladi.

Baholash jarayonida universitetlarda asosiy fan toifasiga to'g'ri keladigan talabalar ulushi hisoblab chiqildi. Mazkur ko'rsatkich universitet ta'lim faoliyatining qay darajada muayyan sohada ixtisoslashganini yoki ta'lim dasturlari ko'p tarmoqli tarzda shakllanganini aniqlash imkonini beradi.

Tahlil natijalarini tizimlashtirish maqsadida universitetlarning ixtisoslashuv darajasi quyidagi shartli guruhlarga ajratildi:

yuqori ixtisoslashgan universitetlar — asosiy fan toifasi ulushi 70 foiz va undan yuqori bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlari. Bunday universitetlarda ta'lim faoliyati asosan muayyan sohaviy yo'nalishlarga yo'naltirilgan bo'lib, talabalar kontingentining katta qismi ushbu sohaga mos ta'lim dasturlarida tahsil oladi;

aralash profilli universitetlar — asosiy fan toifasi ulushi 50–70 foiz oralig'ida bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlari. Bunday oliygohlarda asosiy sohaviy yo'nalish saqlangan bo'lsa-da, ta'lim dasturlari tarkibida boshqa sohalar ulushi ham sezilarli darajada mavjud;

ko'p tarmoqli universitetlar — asosiy fan toifasi ulushi 50 foizdan past bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlari. Mazkur holat universitetlarda ta'lim faoliyati bir nechta sohalar bo'yicha kengayganini hamda oliygohlarning aniq sohaviy ixtisoslashuvi nisbatan past darajada ekanini ko'rsatadi.


Mazkur yondashuv universitetlarning institutsional profilini yana-da aniqroq baholash, ularning strategik missiyasi va amaldagi ta'lim dasturlari tarkibi o'rtasidagi muvofiqlikni tahlil qilish hamda milliy reytingni shakllantirishda oliy ta'lim tashkilotlarini ixtisoslashuv darajasi bo'yicha qiyosiy baholash imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, mazkur baholash mexanizmi oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim yo'nalishlari tarkibining shakllanish tendensiyalarini aniqlash, universitetlarning sohaviy rivojlanish strategiyasini baholash hamda ta'lim siyosati doirasida tegishli qarorlar qabul qilish uchun tahliliy asos bo'lib xizmat qiladi.

III. TALABALAR KONTINGENTINING TA'LIM SOHALARI KESIMIDA TAQSIMOTI

Respublika oliy ta'lim tizimida talabalar kontingenti ta'lim sohalari kesimida muayyan nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, talabalarning katta qismi ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlarida jamlangan bo'lib, ushbu soha oliy ta'lim tizimida yetakchi o'rinni egallamoqda.

Talabalar kontingentining fanlar toifalari kesimidagi taqsimoti quyidagi diagrammada aks ettirilgan



1-Rasm. Talabalar kontingentining fan toifalari kesimida taqsimoti (foiz hisobida, so'nggi uch yillik dinamikasi).

Tahlil qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2023/2024, 2024/2025 hamda 2025/2026 o'quv yillari davomida oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar umumiy kontingentida o'sish dinamikasi kuzatilib, 2023/2024 o'quv yilidagi

1 335 005 nafardan 2025/2026 o'quv yilida 1 625 529 nafarga yetgan, mazkur davrda talabalar soni 290 524 nafarga ko'payib 21,8 foizga oshganini qayd etadi.

Ta'lim yo'nalishlari tuzilmasi tahlili ijtimoiy-gumanitar fanlar toifasining ustunlik qilayotganini ko'rsatadi. Xususan, mazkur toifaning ulushi 2023/2024 o'quv yilida 59 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025/2026 o'quv yiliga kelib 63 foizga yetgan. Shu bilan birga, amaliy fanlar toifasi ulushida qisqarish tendensiyasi kuzatilib, 2023/2024 o'quv


yildagi 31 foizdan 2025/2026 o'quv yiliga kelib 25 foizga tushgan.

Tibbiyot fanlari toifasi bo'yicha talabalar ulushi 2023/2024 va 2024/2025 o'quv yillarida 7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025/2026 o'quv yilida 9 foizgacha oshgan. Ijod (sport) fanlari toifasi ulushi esa tahlil qilingan barcha yillarda 3 foiz darajasida barqaror saqlangan.

Mazkur ko'rsatkichlar oliy ta'lim tizimida talabalar soni ortib borayotganini, shu bilan birga ta'lim yo'nalishlari tarkibida ijtimoiy-gumanitar fanlar ustunligi saqlanib qolayotganini hamda amaliy fanlar ulushida nisbatan pasayish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatadi.

IV. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING TA'LIM SOHALARI KESIMIDA (FANLAR TOIFASI) TAQSIMOTI

Respublikada faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlari fanlar toifasi bo'yicha tahlil qilinganda, ularning sohaviy ixtisoslashuvi turlicha ekani kuzatiladi. Oliy ta'lim tashkilotlari quyidagi tartibda guruhlangan.



2-Rasm. Oliy ta'lim tashkilotlarining mulkchilik shakli kesimidagi taqsimoti.



AMALIY FANLAR

50 ta oliy ta'lim tashkiloti mavjud bo'lib, ularning 32 ta davlat oliy ta'lim tashkiloti, 6 ta nodavlat oliy ta'lim tashkiloti, 12 ta xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallaridan iborat.




TIBBIYOT FANLARI

18 ta oliy ta'lim tashkiloti mavjud bo'lib, shundan 11 ta davlat oliy ta'lim tashkiloti, 6 ta nodavlat oliy ta'lim tashkiloti, 1 ta xorijiy oliy ta'lim tashkilotining filiali hisoblanadi.



IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR

119 ta oliy ta'lim tashkiloti mavjud bo'lib, ularning 45 ta davlat oliy ta'lim tashkiloti, 60 ta nodavlat oliy ta'lim tashkiloti, 14 ta xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallaridan tashkil topgan.



IJOD (SPORT) FANLARI

13 ta oliy ta'lim tashkiloti mavjud bo'lib, shundan 12 ta davlat oliy ta'lim tashkiloti, 1 ta xorijiy oliy ta'lim tashkilotining filiali hisoblanadi.

V. HUDUDLAR KESIMIDA TAHLIL

Hududlar kesimida amalga oshirilgan tahlil natijalari respublika oliy ta'lim tizimida oliy ta'lim tashkilotlarining sohaviy tarkibi hududlar bo'yicha turlicha shakllanganini ko'rsatadi. Jumladan, oliy ta'lim tashkilotlarining asosiy qismi ijtimoiy-gumanitar fanlar toifasiga to'g'ri keladi.


Ayniqsa, Toshkent shahri mazkur toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari soni bo'yicha yetakchi hudud hisoblanadi. Toshkentda jami 86 ta oliy ta'lim tashkilotidan 50 tasi ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishiga ixtisoslashgan yoki mazkur sohada ustuvor ta'lim dasturlariga ega.

Amaliy fanlar toifasi bo'yicha ham asosiy markaz sifatida Toshkent shahri ajralib turadi. Xususan, mazkur toifadagi 23 ta oliy ta'lim tashkiloti Toshkentda joylashgan. Boshqa hududlarda esa mazkur toifaga oid universitetlar soni nisbatan kam bo'lib, Samarqand viloyatida 14 ta oliy ta'lim tashkilotidan 5 tasi, Andijon viloyatida 10 tadan 3 tasi, Qoraqalpog'iston Respublikasida 10 tadan 3 tasi amaliy fanlar

toifasiga to'g'ri keladi. Bu holat muhandislik va texnik yo'nalishlardagi ta'lim muassasalarining asosiy qismi markaziy hududlarda jamlanganini ko'rsatadi.

Tibbiyot fanlari toifasi bo'yicha universitetlarning hududiy taqsimotida nisbatan muvozanatli holat kuzatilsa-da, ularning asosiy qismi ham poytaxt va yirik hududiy markazlarda joylashgan. Xususan, Toshkent shahrida 5 ta, Toshkent viloyatida esa 2 ta tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkiloti faoliyat yuritadi.

Ijod va sport fanlari toifasiga kiruvchi oliy ta'lim tashkilotlari soni eng kam bo'lib, ularning asosiy qismi ham Toshkent shahrida jamlangan. Jumladan, Toshkentda shahrida mazkur yo'nalishdagi 8 ta oliy ta'lim tashkiloti faoliyat yuritadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida 3 ta, Toshkent viloyatida 1 ta shunday muassasa mavjud bo'lsa, aksariyat hududlarda mazkur sohadagi oliy ta'lim tashkilotlari umuman mavjud emas.



3-Rasm. Oliy ta'lim tashkilotlarining hududlar kesimidagi taqsimoti.


Tahlil natijalari respublika oliy ta'lim tashkilotlarining hududiy taqsimoti ma'lum darajada markazlashgan xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Ya'ni, ko'plab sohalar bo'yicha ixtisoslashgan universitetlar asosan Toshkent shahrida jamlangan bo'lib, hududlarda oliy ta'lim tashkilotlari soni hamda ta'lim yo'nalishlari tarkibi nisbatan cheklangan.

Shu bilan birga, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlar ulushining yuqoriligi va ijod hamda sport sohaları bo'yicha muassasalar sonining kamligi oliy ta'lim tizimida sohalar bo'yicha muayyan tarkibiy nomutanosiblik mavjudligini ham ko'rsatadi. Mazkur holat universitetlarning sohaviy ixtisoslashuvi va hududiy rivojlanishini hisobga olgan holda ta'lim siyosatini takomillashtirish, shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlarini milliy reyting doirasida sohaviy toifalar bo'yicha baholash mexanizmlarini qo'llash zarurligini asoslaydi.

VI. TOIFALAR KESIMIDA TAHLIL

Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar kontingentining fanlar toifalari kesimidagi tarkibini tahlil qilish universitetlarning sohaviy ixtisoslashuv darajasi va ta'lim dasturlari profilini baholash imkonini beradi. Bunday tahlil universitetlarda qaysi fan sohaları ustuvor ekanini, shuningdek, ta'lim yo'nalishlarining ortib borish darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mazkur ma'lumotlar oliy ta'lim tashkilotlarning institutsional profili va ta'lim faoliyati tarkibi o'rtasidagi muvofiqlikni baholash imkoniyatini yaratadi.


Amaliy fanlar toifasiga kirgan oliy ta'lim tashkilotlari bo'yicha jami 304 691 nafari tahsil olmoqda. Shundan 231 868 nafari (76,1%) mazkur toifaga kirgan oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olmoqda. Ushbu toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida 68 232 nafari (22,4%) gumanitar yo'nalishlarda, 4 569 nafari (1,5%) ijod (sport) yo'nalishlarida hamda 22 nafari (0,01%) tibbiyot sohasiga oid yo'nalishlarda tahsil olmoqda.



4-Rasm. Amaliy fanlar toifasiga oid oliygohlarda tahsil olayotgan talabalar taqsimoti.

Mazkur ma'lumotlar amaliy fanlarga ixtisoslashgan oliy ta'lim tashkilotlarida ham gumanitar ta'lim yo'nalishlari ma'lum darajada shakllanganini ko'rsatadi. Xususan, gumanitar yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar ulushi 22 foizdan ortig'i amaliy toifaga oid oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olmoqda. Bu holat ayrim texnik universitetlarda ta'lim dasturlarining ko'p tarmoqli tarzda shakllanib borayotganini ko'rsatadi.


Tibbiyot fanlar toifasiga kirgan oliy ta'lim tashkilotlari bo'yicha jami 118 581 nafari tahsil olmoqda. Shundan 110 711 nafari (93%) ushbu toifaga mos yo'nalishlarida tahsil olmoqda. Mazkur toifaga kirgan oliy ta'lim tashkilotlarida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha talabalar taqsimlangan, 6 159 nafari (5,2%) gumanitar yo'nalishlarda, 1 636 nafari (1,4%) amaliy fanlar yo'nalishlarida hamda 75 nafari (0,1%) ijod (sport) yo'nalishlarida tahsil olmoqda.



5-Rasm. Tibbiyot fanlari toifasiga oid oliygohlarda tahsil olayotgan talabalar taqsimoti.

Ushbu ma'lumotlar tibbiyot sohasiga ixtisoslashgan oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim yo'nalishlari tarkibi nisbatan barqaror saqlanayotganini hamda talabalar kontingentining asosiy qismi tibbiyot sohasiga mos ta'lim dasturlarida tahsil olayotganini ko'rsatadi.


Ijtimoiy-gumanitar fanlar toifasiga kirgan oliy ta'lim tashkilotlari bo'yicha jami 1 180 202 nafar talaba tahsil olmoqda. Shundan 954 202 nafari (81%) mazkur toifaga mos ta'lim yo'nalishlarida tahsil olmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy-gumanitar fanlar toifasiga kirgan oliygohlarida 167 571 nafari (14%) amaliy fanlar yo'nalishlarida, 39 943 nafari (3%) tibbiyot sohasiga oid yo'nalishlarda hamda 18 486 nafari (2%) ijod (sport) yo'nalishlarida tahsil olmoqda.



6-Rasm. Ijtimoiy-gumanitar fanlar toifasiga oid oliygohlarda tahsil olayotgan talabalar taqsimoti.

Mazkur ma'lumotlar ijtimoiy-gumanitar yo'nalishga ixtisoslashgan oliy ta'lim tashkilotlarida ham amaliy ta'lim yo'nalishlari muayyan ulushga ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, ijtimoiy-gumanitar fanlar toifasiga kirgan oliy ta'lim tashkilotlarida amaliy fanlar yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushi 14 foizdan ortiqni tashkil etib, ayrim universitetlarda ta'lim yo'nalishlari tarkibining kengayishi kuzatilayotganini anglatadi.

Ijod (sport) fanlari toifasiga kirgan oliy ta'lim tashkilotlari bo'yicha jami 22 055 nafar talaba tahsil olmoqda. Shundan 18 683 nafari (84,7%) o'z toifasiga tegishli yo'nalishda tahsil olmoqda. Shu bilan birga, ijod (sport) fanlar toifasiga kirgan oliy ta'lim tashkilotlarida 3 358 nafari (15,2%) gumanitar yo'nalishlarda hamda 14 nafari (0,06%) amaliy fanlar yo'nalishlarida tahsil olmoqda.



7-Rasm. Ijod (sport) fanlari toifasiga oid oliygoohlarda tahsil olayotgan talabalar taqsimoti.


Mazkur ko'rsatkichlar ijod va sport sohasiga ixtisoslashgan oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim faoliyati asosan sohaviy yo'nalishlarga mos ravishda shakllanganini ko'rsatadi.

VII. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI KESIMIDA TAHLIL




AMALIY FANLAR

Tahlil natijalariga ko'ra, amaliy fanlar toifasiga kiruvchi davlat oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar kontingentining asosiy qismi muhandislik va amaliy ta'lim yo'nalishlariga to'g'ri kelishi kuzatilmoqda. Bu mazkur universitetlarda ta'lim jarayonining sohaviy ixtisoslashuvi asosan saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Soha yo'nalishi bo'yicha ulushi eng yuqori bo'lgan TOP-5 davlat oliy ta'lim tashkilotlari quyidagilar hisoblanadi:



Mazkur universitetlarda talabalarning asosiy qismi amaliy fanlar yoʻnalishlarida tahsil olayotgani ularning muhandislikka ixtisoslashuvi yuqori darajada saqlanganini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, ayrim davlat oliy taʼlim tashkilotlarida amaliy fanlar ulushi nisbatan past boʻlib, bu holat taʼlim yoʻnalishlari tarkibida maʼlum darajada koʻp tarmoqli universitet modeli shakllanayotganini koʻrsatadi. Xususan:



Bu holat mazkur oliy taʼlim muassasalarida amaliy fanlar bilan bir qatorda gumanitar va boshqa taʼlim yoʻnalishlari ulushi ham ortib borayotganini koʻrsatadi.

Nodavlat oliy taʼlim tashkilotlari kesimida Acharya university, IT Park university va Japan Digital university da amaliy fanlar ulushi 100 foizni tashkil etib, ushbu oliygohlarda taʼlim jarayoni toʻliq muhandislik yoʻnalishlarga ixtisoslashganini koʻrsatadi.

Xorijiy oliy taʼlim tashkilotlari filiallari orasida “MMFI” milliy tadqiqot yadro universiteti” federal davlat avtonom oliy taʼlim muassasasining Toshkent shahridagi Filiali 100 foiz hamda Toshkent shahridagi Italiyaning Piza universiteti filialida 94 foizni amaliy fanlar ulushi tashkil etmoqda.



TIBBIYOT FANLARI


Tahlil natijalari tibbiyot fanlari toifasiga kiruvchi oliy taʼlim tashkilotlarida talabalar kontingentining asosiy qismi tibbiyot taʼlim yoʻnalishlarida tahsil olayotganini koʻrsatadi. Bu mazkur oliygohlarda taʼlim jarayonining sohaviy ixtisoslashuvi yuqori darajada saqlanayotganidan dalolat beradi.

Soha yoʻnalishi boʻyicha ulushi eng yuqori boʻlgan TOP-5 davlat oliy taʼlim tashkilotlari quyidagilar hisoblanadi: Andijon davlat tibbiyot

instituti, Qoraqalpogʻiston tibbiyot instituti, Toshkent davlat tibbiyot universitetining Termiz filiali, Urganch davlat tibbiyot instituti hamda Buxoro davlat tibbiyot instituti. Ushbu oliy taʼlim tashkilotlarida talabalar kontingentining 100 foizini tibbiyot fanlari yoʻnalishlari tashkil etadi.

Mazkur oliy taʼlim tashkilotlarida talabalarning deyarli barchasi tibbiyot sohasiga oid taʼlim yoʻnalishlarida tahsil olayotgani ularning profil ixtisoslashuvi yuqori darajada saqlanganini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, ayrim oliy taʼlim tashkilotlarida tibbiyot yoʻnalishlari ulushi nisbatan past boʻlib, bu holat taʼlim yoʻnalishlari tarkibining kengayishi kuzatilayotganini koʻrsatadi. Xususan:



Bu holat nodavlat oliy taʼlim tashkilotlarida tibbiyot bilan bir qatorda boshqa taʼlim yoʻnalishlari ham tashkil etilganini koʻrsatadi.

Nodavlat oliy taʼlim tashkilotlari kesimida Central Asian Medical University, Farmatsevtika taʼlim va tadqiqot instituti hamda IMPULS tibbiyot institutida tibbiyot yoʻnalishlari ulushi 100 foizni tashkil etmoqda.

Xorijiy oliy taʼlim tashkilotlari filiallari orasida Qozon (Volgaboʻyi) federal universitetining Jizzax filialida tibbiyot yoʻnalishi ulushi 61 foizni tashkil etib, mazkur oliy taʼlim tashkilotida boshqa taʼlim yoʻnalishlari ham mavjud ekani kuzatiladi.



IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR



Ijtimoiy-gumanitar fanlar toifasiga kiruvchi oliy taʼlim tashkilotlarida talabalar kontingenti asosan gumanitar taʼlim yoʻnalishlarida shakllanganini koʻrsatadi.

Soha yoʻnalishi boʻyicha ulushi eng yuqori boʻlgan TOP-5 davlat oliy taʼlim tashkilotlari quyidagilar hisoblanadi: Andijon davlat chet tillari instituti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Namangan davlat chet tillari instituti, Oʻzbekiston davlat jahon tillari

universiteti hamda Samarqand davlat chet tillari instituti. Ushbu oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar kontingentining 100 foizini ijtimoiy-gumanitar fanlariga oid ta'lim yo'nalishlari tashkil etadi.

Yuqoridagi oliygohlarda talabalarning barchasi ijtimoiy-gumanitar ta'lim fanlariga oid yo'nalishlarida tahsil olayotgani ularning profil ixtisoslashuvi yuqori darajada saqlanganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ayrim davlat universitetlarida ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlari ulushi nisbatan past bo'lib, bu holat universitetlarda ko'p tarmoqli ta'lim modeli shakllanayotganini ko'rsatadi. Xususan:



IJOD (SPORT) FANLARI TOIFASI

Ijod va sport sohasiga ixtisoslashgan oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar kontingenti asosan mazkur yo'nalishlarga to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Soha yo'nalishi bo'yicha ulushi eng yuqori bo'lgan TOP-5 davlat oliy ta'lim tashkilotlari quyidagilar hisoblanadi: Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti, O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali, O'zbekiston davlat konservatoriyasi hamda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. Ushbu oliy ta'lim muassasalarida talabalar kontingentining asosiy qismi san'at va sport sohasiga oid ta'lim yo'nalishlarida tahsil olmoqda. Jumladan, birinchi to'rtta oliygohida mazkur sohaga oid yo'nalishlar ulushi 100 foizni, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida esa 97 foizni tashkil etadi.

Yuqoridagi oliy ta'lim tashkilotlari talabalarning asosiy qismi ijod va sport sohasiga oid ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgani ularning profil ixtisoslashuvi yuqori darajada saqlanganini ko'rsatadi.

Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari filiallari orasida S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universiteti Toshkent filialida ijod sohasi ulushi 100 foizni tashkil etmoqda.

VIII. UNIVERSITETLARNING STRATEGIK MISSIYASI VA AMALDAGI TA'LIM TUZILMASI O'RTASIDAGI NOMUTANOSIBLIK

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim oliy ta'lim tashkilotlarida e'lon qilingan sohaviy profili va amaldagi ta'lim yo'nalishlari tarkibi o'rtasida muayyan nomutanosiblik holatlari kuzatilmoqda. Bunday holat muayyan bir sohaga ixtisoslashgan universitetlarda ijtimoiy-gumanitar ta'lim dasturlari ulushining nisbatan yuqoriligi bilan namoyon bo'lmoqda.

Xususan, muayyan sohaviy ixtisoslashuvga ega bo'lishi kutilgan universitetlarda ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlari ulushining yuqoriligi kuzatilmoqda. Masalan, Zarmed University Samarqand kampusida talabalar kontingentining 52 foizi tibbiyot yo'nalishlariga to'g'ri kelsa, universitetning Buxoro kampusida ushbu ko'rsatkich aksincha tarkibiy nomutanosiblikni namoyon etib, talabalarning 73 foizi ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlarida tahsil olmoqda.

Shunga o'xshash holatlar boshqa ayrim universitetlarda ham kuzatilib, Toshkent amaliy fanlar universitetida talabalar kontingentining 90 foizi, University of Innovation Technologies da esa 87 foizi ijtimoiy-gumanitar fanlar toifasiga oid ta'lim yo'nalishlarida tahsil olmoqda. Bu holat universitetlarning institutsional profili va amaldagi ta'lim dasturlari tarkibi o'rtasidagi muvofiqlik darajasi har doim ham saqlanmayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda universitetlarni baholashda muassasaning akademik profili, ilmiy yo'nalishlari va ta'lim dasturlari tarkibi o'rtasidagi muvofiqlik muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Masalan, Germaniyadagi CHE University Ranking metodologiyasida universitetlar umumiy reyting asosida emas, balki alohida fan sohalarini va ta'lim yo'nalishlari kesimida baholanadi. Bunda ta'lim sifati, talabalar fikri, ilmiy faoliyat va xalqarolashuv kabi indikatorlar hisobga olinib, universitetlarning akademik profili va sohaviy ixtisoslashuvi aniqlanadi.

IX. XULOSA

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida oliygohlarning sohaviy profili, talabalar kontingenti tarkibi hamda ta'lim yo'nalishlarining institutsional tuzilmasini o'rganish maqsadida tahliliy tadqiqot amalga oshirildi. Tahlil jarayonida respublikada faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim yo'nalishlari tarkibi, talabalar kontingentining fanlar toifalari kesimidagi taqsimoti, hududiy joylashuvi hamda mulkchilik shakli bo'yicha shakllangan institutsional xususiyatlari o'rganildi. Tahlil natijasida oliy ta'lim tashkilotlarini toifalashda quyidagi xulosalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Birinchi, oliy ta'lim tashkilotlarini sohaviy profili va ixtisoslashuv darajasi asosida toifalash milliy reyting metodologiyasini yana-da takomillashtirish uchun muhim hisoblanadi. Bu esa oliy ta'lim tashkilotlarini baholash tizimini takomillashtirish va ta'lim siyosatini amalga oshirishda aniq dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Ikkinchi, o'tkazilgan tahlil natijalari oliy ta'lim tizimida oliygohlarning sohaviy profili va talabalar kontingentining fanlar kesimidagi taqsimoti turlicha shakllanganini ko'rsatadi. Talabalar tarkibida ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishlari ustunlik qilib, ularning ulushi 59 foizdan 63 foizgacha oshgan. Aksincha, amaliy fanlar ulushi 31 foizdan 25 foizgacha kamaygan. Tibbiyot fanlari ulushi

7 foizdan 9 foizgacha o'sgan, ijod (sport) yo'nalishlari ulushi barqaror saqlangan. Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim faoliyatida infratuzilma va moddiy-texnik bazaga (laboratoriyaga) nisbatan kamroq resurs talab qiladigan ta'lim dasturlariga ustuvorlik berilishi kuzatilmoqda. Bunday holat muhandislik va texnologik ta'lim yo'nalishlarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan zamonaviy laboratoriyalar, muhandislik infratuzilmasi hamda ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan o'quv-amaliy bazalarni shakllantirish bo'yicha rag'batlantiruvchi shart-sharoitlar yetarli darajada yaratilmayotgani bilan ham izohlanadi.

Uchinchi, hududlar kesimida amalga oshirilgan tahlil natijalari respublika oliy ta'lim tizimida oliy ta'lim tashkilotlarining sohaviy va hududiy taqsimoti ma'lum darajada markazlashgan xususiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Xususan, ijtimoiy-gumanitar, ijod va sport hamda amaliy fanlar yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlarining asosiy qismi Toshkent shahrida jamlanganligi aniqlandi. Shuningdek, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlar ulushining yuqoriligi va ayrim hududlarda amaliy hamda texnik sohalarga ixtisoslashgan tashkilotlar sonining kamligi oliy ta'lim tizimida sohalar bo'yicha muayyan tarkibiy nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi.

To'rtinchi, mulkchilikdan kelib chiqib fanlar toifasi kesimida respublikada faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining sohaviy ixtisoslashuvi turlicha shakllangan. Xususan, ijtimoiy-gumanitar fanlar toifasiga kiruvchi oliy ta'lim tashkilotlari soni eng yuqori bo'lib, ular orasida nodavlat ta'lim muassasalari ulushi salmoqli ekani kuzatiladi. Shu bilan birga, amaliy fanlar toifasida davlat oliy ta'lim tashkilotlari aksariyatni tashkil qiladi. Tibbiyot sohasidagi tashkilotlarda davlat va nodavlat sektorining ishtiroki nisbatan muvozanatli ekani kuzatilgan bo'lsa-da, ijod va sport sohasidagi oliy ta'lim tashkilotlari soni eng kam bo'lib, ular asosan davlat ta'lim tashkilotlaridan tashkil topgani aniqlandi.

Ushbu holat oliygohlarning strategik missiyasi, profili va ta'lim dasturlari tarkibi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash masalasi oliy ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Universitetlarning e'lon qilingan sohaviy yo'nalishi amaldagi ta'lim dasturlari bilan uyg'un bo'lishi oliy ta'lim tashkilotlarining barqaror rivojlanishi, ta'lim sifati hamda kadrlar tayyorlash tizimining mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi.

OLIV TA'LIM TASHKILOTLARINING TALABALAR KONTINGENTI BO'YICHA TOIFALARI TO'G'RISIDA MA'LUMOT

T/r	OTT nomi	Toifaga oid kontingent ulushi	Talabalar soni	Shu jumladan, toifaga oid talabalarning soni	
1. Amaliy fanlar toifasi					
Davlat oliy ta'lim tashkilotlari					
1.	1	AI -Xorazmiy universiteti	100%	89	89
2.	2	Olmalik davlat texnika instituti	100%	5 497	5 497
3.	3	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali	92%	3 670	3 389
4.	4	Jizzax politexnika instituti	90%	8 662	7 761
5.	5	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	90%	10 678	9 558
6.	6	Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti	88%	17 653	15 576
7.	7	Muhammadal-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	88%	14 811	12 984
8.	8	Nukus davlat texnika universiteti	86%	5 846	5 040
9.	9	Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti	85%	9 852	8 420
10.	10	Buxoro davlat texnika universiteti	85%	15 978	13 503
11.	11	Geologiya fanlari universiteti	82%	2 156	1 773
12.	12	Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali	82%	3 014	2 472
13.	13	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	82%	3 099	2 537
14.	14	Toshkent kimyo-texnologiya instituti	81%	8 634	6 992
15.	15	Farg'ona davlat texnika universiteti	80%	18 624	14 944
16.	16	Qarshi davlat texnika universiteti	77%	21 938	16 905
17.	17	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti	76%	5 133	3 914
18.	18	Toshkent davlat transport universiteti	74%	23 869	17 738
19.	19	Toshkent arxitektura - qurilish universiteti	74%	8 266	6 110
20.	20	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali	73%	2 687	1 954
21.	21	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali	72%	1 011	731
22.	22	Samarqand davlat arxitektura- qurilish universiteti	72%	8 357	5 980
23.	23	Namangan davlat texnika universiteti	69%	17 494	12 110
24.	24	Toshkent davlat agrar universiteti	67%	13 503	9 031
25.	25	"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti	66%	13 110	8 667
26.	26	Andijon davlat texnika instituti	65%	9 823	6 433
27.	27	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	65%	7 341	4 759
28.	28	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti	59%	8 639	5 109
29.	29	"Cyber university"	57%	971	551
30.	30	"Yangi O'zbekiston" universiteti	52%	1 540	801
31.	31	Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti	52%	1 765	917

32.	32	Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti	44%	13 136	5 842
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari					
33.	1	Acharya university	100%	241	241
34.	2	IT-Park University	100%	519	519
35.	3	Japan Digital University	100%	730	730
36.	4	Digital university	97%	942	910
37.	5	PDP University	93%	1 433	1 329
38.	6	Samarqand xalqaro texnologiya universiteti	50%	437	218
Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari					
39.	1	"MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti" federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasining Toshkent shahridagi filiali	100%	250	250
40.	2	Toshkent shahridagi Italiyaning Piza universiteti filiali	94%	213	201
41.	3	Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi "Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISiS" ning Olmaliq shahridagi filiali	93%	1 021	952
42.	4	Toshkent shahridagi Belarus -O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti	84%	1 864	1 574
43.	5	I. M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti Toshkent shahridagi filiali	80%	825	659
44.	6	Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali	79%	787	622
45.	7	"D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti" Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasining Toshkent filiali	72%	667	478
46.	8	Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti	72%	2 446	1 751
47.	9	Toshkent shahridagi Inha universiteti	71%	1 634	1 158
48.	10	Toshkent shahridagi Adju universiteti	66%	1 417	940
49.	11	"Sankt -Peterburg davlat universiteti" Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi Toshkent shahridagi filiali	60%	221	133
50.	12	Toshkent shahridagi Puchon universiteti	51%	2 198	1 116
2.Tibbiyot fanlari toifasi					
Davlat oliy ta'lim tashkilotlari					
51.	1	Andijon davlat tibbiyot instituti	100%	12 580	12 580
52.	2	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti	100%	2 993	2 993
53.	3	Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali	100%	5 249	5 249
54.	4	Urganch davlat tibbiyot instituti	100%	7 305	7 289
55.	5	Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti	100%	10 210	10 183
56.	6	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	99%	6 140	6 060
57.	7	Toshkent davlat tibbiyot universiteti	99%	29 993	29 579
58.	8	Samarqand davlat tibbiyot universiteti	98%	15 112	14 882
59.	9	Toshkent davlat tibbiyot universitetining Chirchiq filiali	98%	1 259	1 230
60.	10	Toshkent farmatsevtika instituti	95%	3 437	3 273
61.	11	Farmatsevtika texnik universiteti	84%	45	38
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari					
62.	1	Central Asian Medical University	100%	3 484	3 484
63.	2	Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti	100%	1 452	1 452
64.	3	Impuls BSR	100%	1 930	1 930
65.	4	EMU universiteti	82%	3 857	3 164
66.	5	Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti	64%	2 879	1 834
67.	6	Central Asian University	45%	1 954	889

Xorijiy ta'lim tashkilotlari					
68.	1	Jizzax shahridagi Qozon federal universiteti filiali	61%	1 008	612
3. Ijtimoiy -gumanitar fanlar toifasi					
Davlat oliy ta'lim tashkilotlari					
69.	1	Andijon davlat chet tillari instituti	100%	4 321	4 321
70.	2	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	100%	5 349	5 349
71.	3	Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti	100%	3 502	3 502
72.	4	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	100%	22 022	22 022
73.	5	Samarqand davlat chet tillar instituti	100%	11 782	11 782
74.	6	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti	100%	6 195	6 195
75.	7	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	100%	6 527	6 527
76.	8	Toshkent davlat yuridik universiteti	100%	9 897	9 897
77.	9	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti	100%	8 870	8 837
78.	10	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali	98%	3 240	3 176
79.	11	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	98%	6 096	5 955
80.	12	"Ipk yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti	96%	3 771	3 624
81.	13	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	95%	48 918	46 424
82.	14	Andijon davlat pedagogika instituti	93%	11 971	11 091
83.	15	O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi	92%	2 633	2 427
84.	16	Namangan davlat pedagogika instituti	90%	9 405	8 496
85.	17	Urganch davlat pedagogika instituti	90%	8 259	7 458
86.	18	Guliston davlat pedagogika instituti	90%	5 894	5 282
87.	19	Shahrisabz davlat pedagogika instituti	88%	9 434	8 270
88.	20	Buxoro davlat pedagogika instituti	86%	11 956	10 254
89.	21	Termiz davlat pedagogika instituti	85%	10 873	9 229
90.	22	Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti	83%	13 543	11 191
91.	23	Chirchiq davlat pedagogika universiteti	82%	19 868	16 310
92.	24	Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti	82%	3 077	2 521
93.	25	Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti	80%	18 775	14 990
94.	26	Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti	79%	15 934	12 526
95.	27	Farg'ona davlat universiteti	76%	25 345	19 384
96.	28	Samarqand davlat pedagogika instituti	76%	10 109	7 707
97.	29	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filiali	75%	1 960	1 474
98.	30	Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	75%	7 958	5 934
99.	31	Qo'qon davlat universiteti	73%	16 962	12 374
100.	32	Navoiy davlat universiteti	71%	17 381	12 390
101.	33	Buxoro davlat universiteti	68%	18 691	12 783
102.	34	Termiz davlat universiteti	66%	17 121	11 286
103.	35	Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti	65%	857	553
104.	36	Markaziy Osiyo atrof -muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)	63%	295	187
105.	37	Oziq -ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti	62%	1 168	726
106.	38	Namangan davlat universiteti	62%	14 742	9 120
107.	39	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti	61%	27 011	16 611
108.	40	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti	59%	33 774	19 801
109.	41	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Jizzax filial	57%	4 920	2 808

110.	42	Qarshi davlat universiteti	56%	14 174	7 883
111.	43	Guliston davlat universiteti	53%	14 454	7 690
112.	44	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti	51%	15 225	7 779
113.	45	Urganch davlat universiteti	51%	24 887	12 683
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari					
114.	1	Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti	100%	1 117	1 117
115.	2	Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti	100%	1 799	1 799
116.	3	STARS International University	100%	636	636
117.	4	TEAM universiteti	100%	452	452
118.	5	University of economics and pedagogy	100%	6 420	6 420
119.	6	Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi	100%	1 163	1 163
120.	7	Urganch innovatsion universiteti	99%	3 618	3 587
121.	8	Abu Rayxon Beruniy universiteti	99%	1 498	1 480
122.	9	Buxoro xalqaro universiteti	98%	3 458	3 401
123.	10	Xalqaro Nordik universiteti	98%	5 356	5 251
124.	11	Yangi Asr universiteti	97%	4 238	4 116
125.	12	"TMC" instituti	96%	10 637	10 232
126.	13	"Oriental" universiteti	96%	10 925	10 493
127.	14	Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti	96%	5 724	5 495
128.	15	"Tashkent International University" xalqaro universiteti	96%	6 363	6 096
129.	16	Xalqaro innovatsiyalar universiteti (Effect EDU)	95%	6 627	6 292
130.	17	International school of finance and technology	94%	34 087	32 146
131.	18	Sarbo'n universiteti	94%	8 329	7 845
132.	19	Ma'mun-universiteti	93%	12 511	11 686
133.	20	Osiyo texnologiyalar universiteti (Qarshi innovatsion ta'lim universiteti)	93%	8 221	7 676
134.	21	Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti	93%	2 986	2 772
135.	22	Diplomat University	92%	1 774	1 624
136.	23	Toshkent amaliy fanlar universiteti	90%	24 279	21 905
137.	24	Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti	90%	2 953	2 661
138.	25	University of science and technologies	90%	7 438	6 701
139.	26	Oxus university	90%	400	360
140.	27	Turan International University	90%	5 291	4 753
141.	28	Perfect-university	88%	12 048	10 660
142.	29	Qarshi xalqaro universiteti	88%	7 803	6 901
143.	30	Millat umidi universiteti	88%	2 782	2 446
144.	31	Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti	88%	10 851	9 533
145.	32	Tashkent metropolitan university	88%	216	189
146.	33	University of innovation technologies (Nukus innovatsion instituti)	87%	9 124	7 978
147.	34	Sharq University	87%	840	729
148.	35	Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti	86%	4 939	4 261
149.	36	Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti	86%	584	502
150.	37	Angren universiteti	86%	5 314	4 558
151.	38	Buxoro innovatsiyalar universiteti	85%	12 464	10 641
152.	39	Axborot Texnologiyalari va menejment universiteti	82%	13 737	11 203
153.	40	Toshkent Kimyo xalqaro universiteti	82%	69 760	57 772
154.	41	Profi University	82%	8 295	6 806
155.	42	Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti	81%	20 122	16 380
156.	43	SAMBHRAM university	80%	1 677	1 346
157.	44	Termiz iqtisodiyot va servis universiteti	80%	30 885	24 633
158.	45	University of Business and Science	80%	34 921	27 796
159.	46	Iqtisodiyot va pedagogika universiteti	79%	34 001	27 092
160.	47	Qo'qon universiteti	79%	25 763	20 411
161.	48	Toshkent gumanitar fanlar universiteti	78%	11 492	9 018

162.	49	Urganch Ranch texnologiya universiteti	78%	11 109	8 690
163.	50	Renessans ta'lim universiteti	78%	12 388	9 636
164.	60	Toshkent shahridagi Britaniya menejment universiteti	77%	751	576
165.	51	Turon universiteti	73%	5 233	3 828
165.	52	Osiyo xalqaro universiteti	69%	31 926	22 029
167.	53	Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti	69%	1 989	1 366
168.	54	Navoiy innovatsiyalar instituti	64%	11 834	7 642
169.	55	Alfraganus universiteti	63%	24 909	15 645
170.	56	University of management and future technologies	61%	1 913	1 173
171.	57	Toshkent shahridagi Amerika texnologiyalar universiteti	61%	472	289
172.	58	Tashkent International University of Education	59%	1 414	841
173.	59	Zarmed universiteti (Turon Zarmed universiteti)	56%	13 853	7 827
Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari					
174.	1	"Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligining Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti (universiteti)" Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasining Toshkent shahridagi filiali	100%	422	422
175.	2	A.I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasining Toshkent filiali	100%	873	873
176.	3	Varsovia biznes va amaliy fanlar universiteti Andijon filiali	100%	282	282
177.	4	Toshkent shahridagi Singapur Menejmentni rivojlantirish instituti	96%	4505	4 318
178.	5	G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali	95%	943	892
179.	6	Toshkent xalqaro Vestminster universiteti	92%	6 344	5 838
180.	7	Toshkent shahridagi Vebster universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi	90%	7 244	6 525
181.	8	M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali	82%	969	799
182.	9	O'zbekistondagi Sharda universiteti	80%	951	762
183.	10	Latviyaning Axborot tizimlari menejmenti Oliy maktabining Farg'ona shahridagi filiali	77%	237	182
184.	11	Toshkent shahridagi Amiti universiteti	60%	908	546
185.	12	Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahridagi filiali	57%	406	231
186.	13	"MEI " milliy tadqiqot universiteti Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasining Toshkent filiali	53%	522	277
187.	14	M. Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universitetining Chirchiq shahridagi filiali	51%	435	220
4. Ijod(sport)fanlar toifasi					
Davlat oliy ta'lim tashkilotlari					
188.	1	Botir Zokirov nomidagi O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Milliy estrada san'ati instituti	100%	553	553
189.	2	O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali	100%	248	248
190.	3	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali	100%	156	156
191.	4	O'zbekiston davlat konservatoriyasi	100%	1 160	1 158
192.	5	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti	97%	7 882	7 656
193.	6	O'zbekiston davlat sport akademiyasi	96%	158	152
194.	7	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi	93%	578	537

195.	8	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali	91%	1 599	1 460
196.	9	Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti	88%	965	853
197.	10	Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti	81%	2 476	1 997
198.	11	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali	72%	1 673	1 197
199.	12	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti	56%	4 342	2 451
Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining			filiallari		
200.	1	Toshkent shahridagi « S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti» federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi filiali	100%	265	265

UNIVERSITETLARNING STRATEGIK MISSIYASI VA AMALDAGI TA'LIM TUZILMASI O'RTASIDAGI NOMUTANOSIBLIK

T/r	OTT nomi	OTT toifasi	Amaliy fanlar	Ijtimoiy - gumanitar fanlar	Tibbiyot fanlari	Ijod (sport) fanlari toifasi
1.	Andijon qishloq xo'jaligi va agroteknologiyalar instituti	Amaliy fanlar	65%	35%	0%	0%
2.	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti	Amaliy fanlar	59%	32%	0%	9%
3.	Cyber university	Amaliy fanlar	57%	43%	0%	0%
4.	Samarqand agroteknologiyalar va tadqiqotlar instituti	Amaliy fanlar	52%	48%	0%	0%
5.	Samarqand xalqaro texnologiya universiteti	Amaliy fanlar	50%	39%	0%	11%
6.	"MEI " milliy tadqiqot universiteti Federal milliy tadqiqot universiteti Federal Toshkent filiali	Ijtimoiy -gumanitar fanlar	47%	53%	0%	0%
7.	Toshkent shahridagi Turkiyaning iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti filiali	Ijtimoiy -gumanitar fanlar	43%	57%	0%	0%
8.	Amerika texnologiyalar universiteti	Ijtimoiy -gumanitar fanlar	39%	61%	0%	0%
9.	University of management and future technologies	Ijtimoiy -gumanitar fanlar	39%	61%	0%	0%
10.	Oziq -ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti	Ijtimoiy -gumanitar fanlar	38%	62%	0%	0%
11.	Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti	Ijtimoiy -gumanitar fanlar	14%	86%	0%	0%
12.	University of Innovation Technologies	Ijtimoiy -gumanitar fanlar	13%	87%	0%	0%
13.	University of Science and Technologies	Ijtimoiy -gumanitar fanlar	10%	90%	0%	0%


14.	Toshkent amaliy fanlar universiteti	Ijtimoiy -gumanitar fanlar	10%	90%	0%	0%
15.	UrganchRANCH texnologiya universiteti	Ijtimoiy -gumanitar fanlar	10%	78%	11%	1%
16.	Termiz iqtisodiyot va servis universiteti	Ijtimoiy -gumanitar fanlar	7%	80%	13%	0%
17.	Zarmed universiteti (Turon Zarmed universiteti)	Ijtimoiy -gumanitar fanlar	3%	56%	38%	3%
18.	Varsovia biznes va amaliy fanlar universiteti Andijon filiali	Ijtimoiy -gumanitar fanlar	0%	100%	0%	0%

3-ilova

TALABALAR KONTINGENTINING TA'LIM SOHALARI KESIMIDA TAQSIMOTI

Toifa yo'nalishi bo'yicha jami talabalar soni	Jami talabalar soni	Ijtimoiy - gumanitar fanlar toifasi	Amaliy fanlar toifasi	Tibbiyot fanlari toifasi	Ijod (sport) fanlari toifasi
	1 625 529	1 031 951	4 01 089	150 676	41 813
100%	63%	25%	9%	3%	



 +998 55 505 30 30

 info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

   @nqaaeuz

 @nqaaeuzbot